



## Abdulla Qahhor hikoyasida tarjima muammolari

**Xudoyberdiyeva Durdona Boburovna**

O'zMU Xorijiy Filologiya fakultet II bosqich talabasi [Tel:+998932260034](tel:+998932260034)

### ABSTRACT

Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasining tarjimasida aks etgan davr muammolari va hikoyaning bugungi kundagi ahamiyati yoritib beriladi. Asar qahramonlarining xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Bugungi kun va asar muhiti o'zaro qiyoslanib, farqli va o'xshash jihatlar taqqoslanadi.

### ARTICLE INFO

**Received:** 4<sup>th</sup> December 2023

**Revised:** 4<sup>th</sup> January 2024

**Accepted:** 4<sup>th</sup> February 2024

### KEY WORDS:

Chilyosin, baxshi, tabib, bemor, davr, insoniylik, ilmsizlik, tibbiyot, nochorlik, qoloqlik, johillik.

**Аннотация.** В данной статье освещаются проблемы периода, отраженные в переводе повести Абдуллы Каххора «Больной», значение повести в наши дни, обсуждаются характеристики героев произведения. Сравняются сегодняшняя обстановка и обстановка произведения, сравниваются различия и сходства.

**Ключевые слова:** Чилёсин, бахши, врач, пациент, эпоха, человечество, невежество, медицина, беспомощность, отсталость, невежество.

**Annotation.** In this article, the problems of the period reflected in the translation of Abdulla Qahhor's story "The Patient" and the significance of the story today are highlighted. The characteristics of the heroes of the work are discussed. Today's and the setting of the work are compared, and differences and similarities are compared.

**Key words:** Chilyosin, bakhshi, doctor, patient, era, humanity, ignorance, medicine, helplessness, backwardness, ignorance.

O'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Abdulla Qahhor ijodini hikoyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ijodkorning o'zi yashab o'tgan davr bilan bog'liq, turli mavzulardagi, ijtimoiy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etuvchi hikoyalari bisyor. Ana shunday hikoyalardan biri „Bemor“ hikoyasidir. Kichik hajmli va mo'jazgina bo'lishiga qaramasdan hikoyaning salmog'i, zalvori anchayin katta. Ijodkor yashab turgan va qisman bugungi kun haqiqatlarini o'zida jamlagan hikoya har bir detalga, obrazga e'tibor berishni talab qiladi.

Iste'dodli yozuvchilardan biri bo'lgan Abdulla Qahhorning bir nechta hikoyalari o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida o'zbek xalqining madaniyatiga, turmush tarziga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy holatiga tegishli bo'lgan bir nechta qiyinchiliklarga uchradek. Hozir shu hikoyalardan bir bo'lgan, kichik hajmli bo'lsada, xalqimizning turmush tarzini, yashash sharoitini o'sha davrdagi iqtisodiy-siyosiy

ahvoli qisman bo'lsada yoritilib bergan, kitobxonlar tomonidan sevib mutolaa qilinadigan "Bemor" hikoyasini tanladek. Ushbu asar realistik badiiy asar turiga mansub.

Xo'sh, realistik badiiy asar turi qanday bo'ladi?

"Contemporary realistic fiction offers children insights into the personal and social values of our culture and permits in the dilemmas and the triumphs of the characters. Growing up, family life, and friendship are all themes of contemporary realistic fiction."<sup>1</sup>

"Bemor" hikoyasining yaratilish tarixini aniq tasavvur qilish uchun uni(shartli ravishda) bo'laklarga ajratish mumkin:

1. Hayot va unda bo'lib o'tgan voqea(Sotiboldining xotining og'ir xastaligi va uning xotiniga bo'lgan munosabati)
2. Uni mushohada qiluvchi yozuvchi (Abdulla Qahhor)
3. Mushohada va muhokama natijasida yozuvchi ongida tug'ilgan fikr, g'oya(Sotiboldi oilasining bekasi bo'lmish xottini uchun jonini sadqa qiluvchi mard va mehribon er, fidoyi ota)
4. Shu fikrni ifoda qilish uchun yozuvchi tomonidan tasavvur qilingan va yaratilgan lavha("Bemor" hikoyasi)

Abdulla Qahorning badiiy ijod jarayonini tasavvur qilar ekanmiz, hayot va uning voqealari, turli-tuman taassurotlar, sezgilar orqali yozuvchining ongiga kiradi, qalbiga ta'sir etadi, unda ma'lum fikrlar, tuyg'ular silsilasini uyg'otadi, ular san'atkor salohiyatida "qaynab", "pishib", "etilib" adabiyot asari sifatida yuqorida aytib o'tilgan hikoyasi shaklida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bunday hikoyalarni ona tilimizdan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida, yozuvchi bu hikoyani yozish jarayonidagi uning holatiga tushish talab etiladi. Chunki, yuqorida aytib o'tganimizdek, san'atkor bu noyob asariga o'zining his-tuyg'ularini, ichki-kechinmalarini jamlaydi. Bunday hissiyotlari jamlangan lavhalarni putur yetkazmasdan tarjima qilinishi shart.

Hikoya boshlanishi bilanoq, tarjimon ba'zi bir qiyinchiliklarga uchraydi. Buni Sotiboldining xotini uchun qildirgan ba'zi ishlari, jumladan, chilyosin qildirganda, kasal odamdan tabibning qon olishida, allaqanday bir xotin kelib uni tolning xipchini bilan savalaganida namoyon bo'ladi. "The mullah recited many prayers to the patient, but it didn't affect, Sotiboldi showed her to the inyanga. After that, the patient's eyes are blurred and dizzy. The clairvoyant also said many her prayers. One woman came and whipped the patient with a whip of osier, she slaughtered a hen to smear its blood all over the patient's body..." Ya'ni, bu lavha to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda, chet ellik kitobxon uchun tushunarsiz bo'lishi tabiiy hol. Chunki, bu o'sha davrdagi o'zbek xalqining madaniyati va qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Yana bir e'tiborga loyiq tarjimadagi qiyinchiliklardan biri, yozuvchi shu qisqa hikoyaning o'zida bir nechta xalq maqollarini qo'llaydi. Misol tariqasida, "Osmon yiroq, yer qattiq – The sky is far, the eart is hard", "Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi - A thick stretches, a thin breaks" kabi maqollarni keltirishimiz mumkin. Bu kabi maqollarni tushunish uchun o'zbek xalqining madaniyati va etnik hayoti haqida to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. "As experts in intercultural communication have long known, speech-making becomes more complex as cultural diversity increases. Part of the complexity stems from the differences in language from culture to culture".<sup>2</sup>

Qiyinchilik tug'dirgan qismlaridan yana biri bu hikoyaning eski hozirgi o'zbek tilida yozilganligidir. XX asrning 30-yillariga kelib hozirgi o'zbek adabiy tilining qoidalari shakllandi.<sup>3</sup> Chunki, yozuvchi adabiy normalarga suyangan holda qiyin grammatik shakl va o'sha davrga taalluqli bo'lgan adabiy so'zlardan keng foydalangan. Bunday qismlar va hozirgi kunda kamdan-kam ishlatiladigan so'zlarni tarjima qilishda, tarjimonning eski adabiy o'zbek tili lug'atidan keng foydalanishni taqazo etadi. Misol uchun, "U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib, savat to'qiydi - He weaves baskets while buried in the bushes from morning till night." qismida ko'rishimiz mumkin. Bunda yozuvchi hozirgi o'zbek adabiy tili bosqichiga oid bo'lgan so'zlardan foydalangan. Bu kabi so'zlarning ingliz tilida muqobil tarjimasi yo'q. Shuning uchun bunday so'zlarni faqatgina iborali holatda yoki ta'rifini keltirish orqali cheklanadi. Agarki,

<sup>1</sup> Pamela J. Farris. "Language Arts". – 1997. Boston: "A Division of the McGraw.Hill companies". – B.86.

<sup>2</sup> Stephon E. Lucas. "The Art of Public Speaking". – 1995,1998. The United States of America: "The McGraw.Hill companies". – B.24.

<sup>3</sup> G'.Abdurahmonov, Sh.Shukurov, G.Maxmudov. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi". – 2008. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". – B.39.

tarjimon har doim tarjima qilayotgan asarini ichiga kirib, qahramonlar bilan birga yashab, ular his qilgan narsalarni his qilgan holda tarjima qilsa, unda jamiyat, davlat, oddiy insonlar turmush tarzi, e'tiqodi va madaniyati haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Shuning uchun tarjima jarayonida bor e'tibor faqat tarjimaga emas, shu bilan birgalikda, ichida ilgari surilayotgan ma'no, mazmun va mohiyatga ham qaratilishi lozim. "The various languages spoken by mankind admit of being grouped together in certain great families, the numbers of each of which resemble each other more or less closely in the words used to express ideas, and in the grammatical framework of forms and inflexions by which the words are combined."<sup>4</sup>

### **Xulosa**

Abdulla Qahhorning hayotning ko'plab haqiqatlari o'zida jamlangan bu kichik hikoyasi asrlar davomida ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Bu hikoyada iqtisodiy va siyosiy ahvoning oddiy insonlar hayotidagi o'rni, qashshoqlik va tengsizlik masalalari yozuvchi tomonidan mohirona tasvirlab berilgan. Shunday ekan, bunday hikoyalarni tarjima qilishda doimo tarjimondan xuddi ijodkordek adabiy salohiyatini, o'zining Alloh tomonidan berilgan bepoyon imkoniyatlaridan foydalanishi talab etiladi. Shundagina tarjimon kitobxon va adabiy muxlislari tomonidan keng maqtoqlar va olqishlarga sazovor bo'ladi. Xulosa o'rnida aytib o'tishimiz mumkinki, Abdulla Qahhorning "Bemor" kabi mashhur va qudratli asarlari asrlar davomida barhayot yashaydi va boshqa yana ko'plab tillarga tarjima qilinib, boshqa dunyoning noyob asarlari bilan bemalol raqabotda bo'la oladi.

### **Tanlangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pamela J. Farris. - "Language Arts". – "A Division of the McGraw.Hill companies" - Boston, 1997.
2. Stephon E. Lucas. "The Art of Public Speaking". – "The McGraw.Hill companies" - The United States of America, 1995, 1998.
3. G'. Abdurahmonov, Sh.Shukurov, G.Maxmudov. "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi". – "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti"- Toshkent, 2008.
4. A.G. Maksumov. "English grammar: theory and usage".- "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" - Tashkent,2006.

---

<sup>4</sup> A.G.Maksumov."English grammar: theory and usage". - 2016.Tashkent:"Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". – B.10.